

1 dm	1 sm
10 mm	10 sm
100 kg	100 m ²
1 ga	1 sr
200 m	2000 gr

O'quvchilar ushbu jadvaldagi ikki ustunni mos keladigan birliklarini o'zlari topadilar. Bu bilan, o'quvchilarning mavzuni o'zlashtirish ko'rsatkichlari yaxshilanibgina qolmay ularda, topqirlik va zukkolik hislatlari ham rivojlanadi.

2. *Matematik terminlar o'yini.* Ushbu o'yin qoidasi shundayki, o'quvchilar 3 guruhga bo'lingan holda matematik terminlarni aytishadi. Bunda shart shundayki, oxirgi tugagan harfdan aytish talab qilinadi.

Masalan: *Misol-logorifm-masala-ayniyat-ta'rif-formula-arifmetika-algebra-algoritm-metr-ratsional-limit-triginometriya...*

Bu ketma-ketlikni ko'plab davom ettirish mumkin. O'quvchilarda ushbu o'yin o'ynash orqali umumiy matematik tushunchalarni takrorlash imkoniyati paydo bo'ladi va bu o'yinni tez-tez darslarda o'ynab turish tavsiya etiladi.

Karrali sonlar. O'yinda ishtirok etuvchi guruh talabalaridan tuzilgan jamoa o'yinga shay turadi. Navbati bilan sonlar tartibi keltiriladi. Lekin to'rtga karrali sonning navbati etganda, shu sonning o'rnida talaba, albatta kompyuterning bironta buyrug'ini yoki yordamchi klavishning vazifasini aytishi shart. Qoidani buzgan har bir o'quvchi o'yinni tark etadi. Ma'lum vaqt davomida o'yinni faol davom ettirgan ishtirokchi g'olib sanaladi. O'yin xotirani charxlashda juda samarali hisoblanadi.

Shu va shunga o'xshash o'yin texnologiyalaridan barcha fanlarni o'qitishda foydalanish mumkin va bu juda samarali metod hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. X.Avliyaqulov. "pedagogicheskaya texnologiya". Toshkent-2009y.

2. Alimov Sh.A, Xolmuhammedov O.R, Mirzaahmedov M.A. “Algebra” 8-sinf darslik. Toshkent-2014 y
3. K. Ismanova. Amaliy dars mashg‘ulotlarini innovatsion usullar yordamida tashkil etish. — Ta’lim muammolari jurnali. 2-son, 2012-yil.